

**«[dep\_name]» Bank jamg'arma omonatining  
[pers\_acc] – sonli shartnomasi**

[city]

[date\_open] y.

""O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" aksiyadorlik jamiyati, bundan buyon matnda "**BANK**" deb yuritiladi, bankning [filial\_name] bo'linmasi Boshqaruvchisi Bank nomidan [manager] [dog\_date] yildagi [dog\_num] sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi, bir tomondan [client\_name] bundan buyon matnda "**OMONATChI**" deb yuritiladi, boshqa tomondan, ushbu Shartnomani quyidagicha tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. **Omonatchi** pul mablag'larini [sum\_dep] ([sum\_dep\_str\_uz]) miqdorida «[dep\_name]» omonatiga (bundan keyin: "Omonat" deb nomlanadi) kiritadi, **Bank** quyidagi shartlar asosida qabul qiladi:

- [dep\_month] muddat uchun (keyingi o'rinlarda Omonat muddati);
- yillik [percent\_dep] % miqdorida Omonat bo'yicha foizlarni hisoblash bilan \*;

\* (foizlar Bank aktivlari va passivlarini boshqarish Qo'mitasi tomonidan belgilanadi va shartnomani tuzish paytida amal qiladi).

- birlamchi minimal badal summasi - 100.000,00 so'm;
- kalendar ish kunlariga muvofiq har oyda foizlarni to'lab berish;
- talab qilib olinmagan foizlar kapitalizasiya qilinmaydi.

1.2. Omonat bo'yicha 100 000 (Bir yuz ming) so'm miqdorida kamaytirilmaydigan qoldiq o'rnatilgan.

1.3. Omonat bo'yicha kiritim va chiqim amaliyotlari kaytirilmaydigan qoldiqni saqlash sharti bilan amalga oshiriladi.

1.4. Omonat shartnomasi va hisobraqamiga pul mablag'larini qo'yish o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan [book\_serial] [book\_number]- sonli Jamg'arma kitobchasi bilan tasdiqlanadi.

1.5. Omonat muddati tugagach, talab qilib olinmagan omonatlar, hisoblangan foizlar bilan birgalikda talab qilib olinguncha omonatiga o'tkazilgan vaqtdan boshlab talab qilib olinguncha omonatlar uchun belgilangan miqdorda foizlar hisoblanadi.

**2. Foizlarni hisoblash va o'tkazish shartlari**

2.1. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlar [currency\_name]da to'lanadi.

2.2. Omonat summasi bo'yicha foizlar Bank tomonidan olingan kundan keyingi kundan (mijozning shaxsiy hisobraqamiga) omonatchiga qaytarilishidan oldingi kungacha yoki boshqa sabablarga ko'ra omonatchining hisobraqamidan chiqarilishigacha hisoblanadi. Bank omonatchining hisobraqami xatlanishi tufayli ushbu hisobraqamdagi mablag'lardan foydalana olmagan davri uchun foizlar hisoblanmaydi

2.3. Agar foizlarni o'tkazish sanasi bank ishlamaydigan kuniga to'g'ri kelsa, u keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi. Shu bilan birga, kiritim qilingan foizlar ishlamaydigan bank kunlari uchun hisoblangan foizlar miqdori bilan ortadi.

2.4. Omonatchining omonat yoki uning bir qismini muddatidan oldin hisobdan chiqarilgan taqdirda ushbu shartnoma bekor qilinadi.

Omonat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Omonat saqlangan muddatga hisoblangan va to'lab berilgan foizlar quyidagi tartibda qayta hisob-kitob qilinadi va hisobraqam qoldig'idan echib olinadi:

- 3 oy muddatgacha saqlanganda yillik 0 %;
- 3 oydan 18 oygacha saqlanganda yillik 10 %.

2.5. Omonatning kamaytirilmaydigan qoldig'ini bir qismi muddatidan oldin qaytarib olingan taqdirda, mablag'lar qoldig'i "Talab qilib olinguncha" omonatiga o'tkaziladi va Shartnoma "Talab qilib olinguncha" omonati shartlari bilan uzaytirilgan hisoblanadi. Shu paytdan boshlab foizlar Bank tomonidan talab qilib olinguncha omonatlari bo'yicha to'lanadigan foizda hisoblanadi.

### 3. Tomonlarning majburiyatlari

#### 3.1. Bankning majburiyatlari:

- Omonat sirini saqlash va ular to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'lumot berish;
- Omonatchi yoki uchinchi shaxslardan omonatning tasdiqlangan shartlariga muvofiq omonatga naqd pul va naqd pulsiz shakldagi pul mablag'larini Omonatchining omonati bo'yicha zaruriy ma'lumotlarini ko'rsatgan holda qabul qilish;
- Omonatchining yoki uning vakillarining birinchi talabiga binoan (ishonchnoma orqali) omonatlarga qo'yilgan mablag'larni, shuningdek ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq hisoblangan foizlarni qaytarish;
- Omonatchi talab qilib olinguncha omonatini ochganda, axborot xizmatlariga ulanish uchun omonatchi tomonidan taqdim etilgan ariza asosida SMS- va elektron pochta orqali xabardor qilish, shuningdek, shaxsiy WEB-kabinet va / yoki mobil banking kabi axborot xizmatlariga ulash.
- Mobil banking va SMS - xabar xizmatlari, elektron pochta - xabarnoma - Omonatchining amaldagi shartnomaning 8 - bo'limida ko'rsatilgan telefon raqami va elektron pochta manziliga amalga oshiriladi.
- shaxsiy WEB-kabinet va foydalanuvchi Yo'riqnomalariga kirish uchun omonatchini login va parol bilan ta'minlash.
- Omonatchiga mobil banking SMS, elektron pochta manzili va / yoki shaxsiy WEB-kabinet orqali axborot xizmatlarini taqdim etish;
- Omonatchining yozma arizasiga ko'ra, omonatchining boshqa mobil telefon raqamlari/elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga ulash, shu jumladan avvalgilarini o'chirib qo'yish;
- Omonatchini quyidagilardan xabardor qilish (axborot berish):
  - mablag' to'g'ridan-to'g'ri bank hisob raqamidan chiqarilishi to'g'risida, hisobdan chiqarilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay, kimning foydasiga, sababi va chiqarilayotgan summaning miqdori ko'rsatilgan holda;
  - Mijozning bank hisob raqamlaridagi bank operatsiyalari to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay, bank operatsiyalarini to'xtatib turish sabablarini ko'rsatgan holda.

Tegishli bildirishnoma mijozning o'z tanloviga quyidagi yo'llar bilan mijozga yuboriladi:

\_\_\_\_\_ (shaxsan);

\_\_\_\_\_ (pochta orqali)

\_\_\_\_\_ (elektron aloqa orqali: SMS - xabarnoma/ /elektron pochta manzili).

#### 3.2 Mijozning majburiyatlari:

- ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilish;
- mobil bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma shartlariga (ommaviy oferta shartlari) Omonatga dastlabki badalning minimal / maksimal hajmiga va / yoki Omonatni mobil ilovasi orqali masofadan ochishda Omonatning tasdiqlangan shartlariga muvofiq amal qilish;
- omonatni muddatidan ilgari hisobdan chiqarish kutilayotgan sanadan bir oydan kechiktirmay, bankni o'z niyatidan yozma ravishda xabardor qilish;
- pasport ma'lumotlariga, yashash joyiga va aloqa raqamlariga kiritilgan o'zgartirishlar haqida iloji boricha tezroq yangi pasport ma'lumotlarining nusxasini, shuningdek ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan axborot xizmatlari ulangan mobil telefon raqami va / yoki elektron pochta manzilini taqdim etish bilan xabardor qilish.

### 4. Tomonlarning huquqlari.

#### 4.1. Bank huquqlari :

- omonat muddati tugaganda omonat summasini va unga hisoblangan foizlarni talab qilib olinguncha omonatiga o'tkazish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisob raqamidagi operatsiyalarni to'xtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish;

- bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorlarda omonat operatsiyalarini amalga oshirish uchun komissiya undirish;
- jamg'arma kitobchasini yo'qotganlik uchun Bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorda komissiya undirish;
- bank tariflarida ko'zda tutilgan miqdorlarda (xizmat ko'rsatish bo'yicha omonatchining yozma arizasiga asosan) bank mijozlarining hisob raqamlaridagi harakatlar haqida axborot xizmatlarini (mobil banking sms-, e-mail, web - xabarnoma) taqdim etish uchun komissiya undirish. Shu bilan birga, ko'rsatilgan axborot xizmatlari uchun komissiyalar miqdori omonatchining [acc\_dv] sonli talab qilib olinguncha Omonatidan undirib olinadi;
- Omonatchidan ularning pasport ma'lumotlari, yashash joyi va aloqa telefon raqamlariga kiritilgan har qanday o'zgarishlar haqida ma'lumot talab qilish va olish.

#### 4.2. Omonatchi huquqlari:

- Omonatni shaxsan va uning vakili orqali (ishonchnoma bo'yicha) boshqarish, agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;
- Ushbu shartnoma 1.1. badda nazarda tutilgan omonat muddati tugashi bilan omonat va unga hisoblangan foizlarni talab qilish;
- Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ushbu shartnoma shartlariga muvofiq omonat summasini qaytarishni talab qilish;
- telefon, elektron pochta manzili va / yoki shaxsiy kabinet orqali axborot xizmatlaridan foydalanish;
- davriy ravishda Internet tarmog'ida ([www.nbu.com](http://www.nbu.com)) Bankning rasmiy veb - saytida joylashtirilgan omonatlari va tariflari haqida ma'lumot bilan tanishib borish;
- bankka yozma ariza bilan yoki mustaqil ravishda shaxsiy WEB-kabinet orqali murojaat qilib, boshqa uyali telefon raqamlarini/elektron pochta manzilini axborot xizmatlariga ulash, shu jumladan avvalgilarini o'chirish;
- Bank tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni yoki boshqa xizmatlarni yozma ravishda tegishli ariza berish orqali rad etish.

### 5. Antikorrupsiya shartlari.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar, ularning affiliralgan shaxslari, xodimlari yoki vakillari:

- Har qanday shaxslarga, noqonuniy manfaatlar yoki boshqa noqonuniy maqsad va / yoki foyda olish uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, har qanday pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklarni berishga, taklif qilishga ruxsat bermaydilar va bunday harakatlarni amalga oshirmaydilar.

- Qonunchilikda pora berish/olish, tijorat porasi berish sifatida ta'riflangan harakatlarni, shuningdek qonuniy talablarga va jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi xalqaro hujjatlarga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

5.2. Har bir tomon boshqa tomonni (Bank xodimlarini) har qanday shaklda, jumladan pul mablag'lari berish, sovg'alar taqdim etish, bepul xizmat ko'rsatish yoki boshqa usullar bilan rag'batlantirishdan voz kechadi, bu esa Bank xodimini muayyan bog'liqlikka solish va mazkur xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasi uchun harakat qilishini taqiqlaydi.

5.3. Agar tomonlarda korrupsiya yoki firibgarlik holatlari sodir bo'lganligi yoki sodir bo'lishi ehtimoliga oid shubhalar yuzaga kelsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majburdir.

5.4. Xabar qilingan tomon mazkur shartnomadagi majburiyatlarni korrupsiya faktlari tasdiqlanganiga qadar to'xtatish huquqiga ega.

5.5. Tomonlar pora berish/olish yoki pora berish haqida yolg'on ma'lumotlar berish oqibatida kelib chiqqan zararni qoplash majburiyatini olishadi.

5.6. Tegishli tomon Bank bilan bog'liqlik va affilanganlik haqida ma'lumot berishga majbur bo'lib, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida ma'lumot taqdim etadi.

## **6. Shartnomaning amal qilish muddati**

6.1. Ushbu Shartnoma tomonlar imzolaganlaridan so'ng kuchga kiradi va ushbu shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi. Bunday holda, bu Shartnomaning 1.1-bandda ko'rsatilgan muddat tugagan taqdirda va agar Omonatchi omonatni va unga hisoblangan foizlarni talab qilmasa, ushbu Shartnoma "Talab qilib olinguncha" omonat shartlari bilan uzaytirilgan hisoblanadi.

6.2. Ushbu shartnoma omonatchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin va omonat ushbu shartnomaning 2.4- 2.5. - bandlari shartlariga muvofiq qaytarib beriladi.

6.3. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Bank tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

## **7. Tomonlarning javobgarligi**

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki noto'g'ri bajarganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga muvofiq javobgardirlar.

7.2. Bank O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq omonatchi tomonidan qo'yilgan mablag'lar xavfsizligini kafolatlaydi

7.3. BANK quyidagilar uchun javobgar emas:

- uchinchi shaxslarga shaxsiy hisob raqamlariga va/yoki mobil bank xizmatlariga kirish uchun login va parolni Omonatchi tomonidan oshkor qilinishi;
- Omonatchi tomonidan uchinchi shaxslarga mobil bank xizmatlari, SMS va elektron pochta xabarnomalari orqali olingan ma'lumotlarni oshkor qilish;
- agar omonatchi uyali telefon raqamini va/yoki elektron pochta manzilini noto'g'ri ko'rsatgan bo'lsa, shuningdek, agar u bankka axborot xizmatlariga ulangan uyali telefon raqamini va / yoki elektron pochta manzilini o'zgartirish to'g'risida ma'lumot bermagan bo'lsa, yuborilgan SMS va elektron pochta xabarlar va/yoki mobil bank xizmati tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning oshkor bo'lishi.

7.4. Omonatchi login/parolni oshkor qilish va/yoki mobil telefon raqami/elektron pochta manzili/shaxsiy hisob/mobil bankingdan boshqa shaxslarga foydalanishga ruxsat bergani uchun javobgardir.

## **8. Maxsus shartlar**

8.1. Tomonlar "Bank siri to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan hollarda, bankka axborot xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan mobil bank xizmatlari, SMS va elektron pochta xabarlar, shaxsiy WEB kabinet kabi texnik xizmatlarni taqdim etuvchi shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi tomonga taqdim etish yoki bankka taqdim etish bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi.

8.2 Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

8.3. Tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilmagan barcha nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

8.4. Ushbu Shartnomaning shartlari ushbu Shartnomaga qo'shimcha bitim tuzish orqali tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

8.5. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikkita asl nusxada (tomonlarning har biri uchun bittadan) tuzilgan.

## TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

**Bank uchun:** [filial\_name]

Manzil: [filial\_address]

STIR: [filial\_inn]

Telefon: [filial\_phone]

Boshqaruvchi [manager]

**Omonatchi:**

F.I.Sh.: [client\_name]

Pochta manzili: [client\_address]

Telefon: [phone\_home],  
[phone\_mobile]

Elektron manzili: [email]

Tugʻilgan sana: [born\_date]y.

Pasport/(shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat) \_\_\_\_\_

seriya: [pass\_ser] № [pass\_num] kim tomonidan, qachon berilgan: [pass\_reg], [pass\_date] y.

---

(F.I.Sh. va imzo)

M.O‘.

---

(imzo)